

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISH  
MUAMMOLARI

*Alimardonov G‘ayratjon Nuralievich*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*Mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tekshiruvlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish masalalari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq Kodeksiga kiritilgan soliq auditi normasining mohiyati ochib berilgan. Soliq auditini xorijiy mamlakatlarda tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha tajribasi keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, audit, soliq auditi, auditning xalqaro standartlari, dalolatnoma, xulosa, qaror.

**Аннотация:** в статье освещены вопросы разработки научных предложений и практических рекомендаций, направленных на совершенствование налоговых проверок в условиях цифровой экономики. Раскрыт характер нормы налоговой проверки, включенной в новый Налоговый кодекс Республики Узбекистан. Приводится опыт организации и проведения налоговых проверок в зарубежных странах.

**Ключевые слова:** финансовый контроль, налоговые проверки, аудит, налоговая проверка, международные стандарты аудита, документ, заключение, решение.

**Abstract:** the article covers the issues of developing scientific proposals and practical recommendations aimed at improving tax audits in the context of the digital economy. The nature of the tax audit norm included in the new Tax Code of the Republic of Uzbekistan has been revealed. The experience of organizing and conducting tax audits in foreign countries is cited.

**Key words:** financial control, tax audits, audit, tax audit, international audit standards, document, conclusion, decision.

**KIRISH:**

Jahon amaliyotida ma'lumki, mamlakatlarda soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish hamda soliq to'lovchilar tomonidan o'z majburiyatlarini bajaraslik oqibatida davlatga etkazilgan zararining o'rnini qoplash soliq tekshiruvlarining pirovard natijasi hisoblanadi. "Soliq tekshiruvi daromadlarni yig'ishga ta'sir qiladi, chunki u soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ravishda majburiyatlarini bajarishiga yordam beradi, bu esa daromadlarni oshiradi". Bugungi

kunda soliq to'lovchilarning qonunchilikka to'g'ri rioya qilishi bo'yicha xatti-harakatlarining sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etishni samarali aniqlashga bo'lgan zaruratning mavjudligi mavzuning dolzarbligini oshirmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Hotamov (2016) o'zining ilmiy ishlarida QQS bilan bog'liq quyidagi masalalarni tadqiq qilgan: mahsulotlar eksportini tasdiqlash, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavkani qo'llash, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish; avtomatlashtirilgan tizimda hujjatlar asosida soliq auditini o'tkazish metodikasini va bilvosita soliqlarni hisobga olish, hujjatlarda aks ettirish va jarayonlarning schotlardagi bog'lanishlari amaliy va uslubiy asoslangan holda takomillashtirish va boshqalar. Uning fikricha: hisobda buxgalteriya yozuvlarining mohiyatan to'g'ri berilishi hisob-kitob ishlaridagi chalkashliklarning oldini oladi, soliq va moliyaviy hisobotlarni tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash maqsadida ortiqcha to'langan bilvosita soliqlar summalari qaytarilishini 6410-“Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzar (turlari bo'yicha)” schotidan emas, taklif qilingan 4420-“Budjetga ortiqcha to'lovlar” schotidan qaytarish taklifi berilgan.

Soliq auditining muhimligini Barsulaya (2019) quyidagicha ifodalaydi: hozirgi vaqtda auditorlik xizmati turlari ichida soliq auditiga ko'proq ehtiyoj tug'ilmoqda. Ekspertlarning baholashicha Rossiya auditorlik kompaniyalari tushumining 30 foizi soliq auditiga to'g'ri kelmoqda.

Bu to'g'rida Arens va Lobbeklar (1995) quyidagilarni yozishgan: “Soliq to'lovchilarni federal soliq qonunlariga rioya qilishini, soliq deklaratsiyalarni tekshirish uchun hukumat auditorlar yollaydi... Soliq qonunchiligi juda murakkab bo'lib, soliqlarni tekshirish bo'yicha auditorlardan chuqur bilimlarga ega bo'lishlikni talab etiladi”.

Iqtisodchi olimlardan Sheremet va Suyslar (2005) soliq auditiga «soliq auditi - bu soliqlarni to'g'ri va to'liq hisoblanishi va to'lanishi, soliq siyosatiga rioya qilinishini auditorlik tekshirishidir» deya ta'rif beradi.

Usatova (2008) o'zining ilmiy ishlarida soliq auditini quyidagicha e'tirof etgan: “Soliq auditi-bu buxgalteriya va soliq hisoblarining holatini, shuningdek tashkilotlarning soliqlar va yig'imglar bo'yicha hisob kitoblarini mustaqil tekshirishdir”.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi auditorlik faoliyati bo'yicha komissiya tomonidan maqullangan (2000 yil 11 iyuldagi 1-sonli bayoni) «Soliq masalalari bo'yicha soliq auditi va boshqa xizmatlar. Soliq organlari bilan muloqat» nomli auditorlik faoliyatini metodikasida soliq auditi quyidagicha yozilgan: “Soliq auditi deganda iqtisodiy sub'ektning buxgalteriya va soliq hisobotlarini haqiqiyli va qonunchilik tomonidan belgilangan normalarga mos kelishligi darajasini, iqtisodiy sub'ektlar tomonidan budjetga to'lanadigan soliqlar va boshqa to'lovlar va budjetdan

tashqari fondlarga ajratmalarni hisobda aks ettirilishini auditorlik tashkilotlar tomonidan maxsus auditorlik topshiriqni bajarilishi tushuniladi”.

Do’smurotov (2007) o‘zining darslik, monografiya va boshqa ilmiy ishlanmalarida auditning umumiy jihatlarini aks ettirish bilan birga, soliqlarning har biri bo‘yicha audit qilishni yoritib bergan.

Hotamovning (2016) fikricha “Soliq auditi – bu mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning barcha elementlari va imtiyozlarni to‘g‘ri qo‘llanilganligi soliq va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga mosligini tekshirishdir”.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda mamlakatimizda mavjud bo‘lgan moliyaviy nazorat tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Soliq auditining mohiyati yoritilgan. Soliq auditini xorij tajribasidan foydalangan holda tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va uni amaliyotga keng joriy etish muhim hisoblanadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir”.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079 sonli Farmonining qabul qilinishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o‘tishning strategiyasini belgilab berdi.<sup>2</sup> “Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasi bevosita soliq nazoratini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotini raqamlashtirishni rivojlantirish sharoitida qonun buzilishi, soliq solinadigan bazani pasaytirish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarining oldini olish uchun soliq tizimini takomillashtirish va soliq nazoratini modernizatsiya qilish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq nazorati soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24-январь 2020 йил.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5-октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон - 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079 сонли Фармони.

va taqqoslash qo‘shimcha soliqlar, jarimalar va penyalar shaklida byudjetga qo‘shimcha to‘lovlarni undirish imkonini beruvchi hamda bu orqali soliq qonunchiligini buzilishini oldini olish yoki minimallashtirishni ta‘minlaydigan turli raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va qo‘llashga asoslanadi.

Soliq organlarining nazorat tadbirlarini amalga oshirish soliq organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan soliq nazorati shakllaridir. Soliq nazoratini ahamiyatini E.N.Golik va A.G.Asatryanlar o‘z tadqiqotlarida quyidagicha e‘tirof etishgan: “So‘nggi yillarda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning asosiy maqsadini ko‘zlovchi turli “kulrang” sxemalarni amaliy qo‘llash muhim ahamiyat kasb etayotganini ta‘kidlaydilar. Ushbu muammoni hal qilish soliq nazoratini amalga oshirish orqali ta‘minlanadi, u davlat tomonidan tartibga solishning shakllari va usullari tizimi sifatida ishlaydi va Rossiya xavfsizligini nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy xarakterdagi chora-tadbirlar orqali ta‘minlaydi.”<sup>3</sup>

Iqtisodiy va huquqiy adabiyotlar hamda me‘yoriy hujjatlarda soliq nazoratiga turlicha ta‘riflar berilgan.

A.S.Advokatova soliq nazoratiga quyidagicha ta‘rif bergan: “Soliq nazorati, soliq ma‘muriyatchiligi tizimining ajralmas qismi sifatida, jamiyatning barcha jabhalarida davlat oldida turgan muammolarni hal etishni ta‘minlaydigan, davlatning moliyaviy resurslarini eng samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishning huquqiy mexanizmini takomillashtirish uchun yo‘nalishlar va yo‘llarni ta‘minlaydigan davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirish.”<sup>4</sup>

T.A.Efremovaning fikriga ko‘ra, samarali soliq nazoratini tashkil etishning birinchi navbatdagi sharti esa soliq va buxgalteriya hisobotlarining elektron tarzda taqdim etishning zamonaviy ilg‘or axborot texnologik tizimga asoslangan soliq nazorati hisoblanadi.<sup>5</sup>

Rossiya Federatsiyasi Soliq Kodeksining 82-moddasida soliq nazorati quyidagicha e‘tirof etilgan: ”Ushbu Kodeks bilan belgilangan vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazorati deb e‘tirof etiladi.”<sup>6</sup>

<sup>3</sup> Голлик Е.Н., Асатрян А.Г. Развитие налогового контроля и его воздействие на экономическую безопасность страны // Наука и образование: хозяйство и экономика; предпринимательство; право и управление. 5 (108). 2019.

<sup>4</sup> Адвокатова А.С. Налоговый контроль в условиях модификации отношений налоговых органов и налогоплательщиков. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Москва – 2019, 26 с.

<sup>5</sup> Ефремова Т.А. (2017), Развитие налогового администрирования в России: теория, методология, практика. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. МГУ. Саранск. стр. 366.

<sup>6</sup> *Налоговый кодекс Российской Федерации (часть первая)* от 31.07.1998 N 146-ФЗ (ред. от 27.12.2019) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.01.2020)

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 135-moddasida soliq nazoratiga ta’rif berilmasada, u quyidagicha e’tirof etilgan: “Vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir”.<sup>7</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 1-sonli qarorining 2-ilovasi “Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida NIZOM”da soliq nazorati quyidagicha qayd etilgan: “Soliq tekshiruvlari soliq to‘lovchilar, yig‘imlarni to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi”.<sup>8</sup>

L.I.Goncharenko va boshqalarning fikricha: Soliq nazorati uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadlari quyidagilar:

- 1) soliq to‘lovchilarning yo‘qotishlarini kamaytirish;
- 2) soliq nazorati tizimining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish;
- 3) qulay soliq muhitini yaratish maqsadida modernizatsiya qilish;
- 4) tahliliy apparatni takomillashtirish.<sup>9</sup>

F.I.Isaev “Raqamli iqtisodiyotni soliq tizimiga joriy etganda:

– yirik korxonalar tomonidan qo‘llanilgan soliqlarni to‘lashdan bosh tortish tizimlarning keng doirasiga oydinlik kiritadi, bu adolatli soliqqa tortish zarurligi to‘g‘risida jamoatchilik o‘rtasida qizg‘in munozaralarni keltirib chiqaradi;

– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy, statistik va soliq hisobotlarini tezda tahlil qilish imkonini beradi;

– tahlika-tahlil ishlarini yo‘lga qo‘yganda, kerakli hisobotlar asosida tezda ma’lumotlarni qayta ishlab, xulosa olishni soddalashtiradi;

– har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyati bo‘yicha ob’ektiv baho berilishini ta’minlaydi;

– hozirgi vaqtda foydalanuvchi ma’lumotlari muhokama markazida bo‘lsa-da, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi yaqin kelajakda ma’lumotlarning keng spektrlarini aqlli ma’lumotlarga aylantirishga yordam beradi”<sup>10</sup>.

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 2022.

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 7 январдаги “Солиқ хавфини бошқариш, солиқ хавфи mavjud солиқ тўловчиларни (солиқ агентларини) аниқлаш ва солиқ текширувларини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида”ги 1-сонли қарорининг 2-илоvasи “Солиқ текширувларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисида НИЗОМ”.

<sup>9</sup> Гончаренко Л. И., Малкова Ю. В., Адвокатова А. С. Актуальные проблемы налоговой системы в условиях цифровой экономики // Экономика. Налоги. Право. — 2018. — № 2. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-nalogovoy-sistemy-v-usloviyah-tsifrovoy-ekonomiki> (дата обращения: 7.09.2022).

<sup>10</sup> Исаев Ф.И. Солиқ текширувларини рақамлаштириш зарурияти. “Бизнес-эксперт” илмий журнали. 2021. - № 6. - 52-54 б.

Shuningdek, F.I.Isaev boshqa bir tadqiqotida: “Bugungi iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning jadalashgan davrida tahlila tahlil dasturining afzalligi olib borilayotgan tekshiruvlar mobaynida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni ishlab chiqilgan mezonlar asosida xavflilik darajasini aniqlab, soliq organlari tomonidan ularning faoliyati xususida to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini beradi va hukumat tomonidan quyilayotgan muhim talab: tadbirkorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi turli xil soliq tekshiruvlarini kamaytirib, xavflilik darajasi o‘rta va yuqori bo‘lgan holatlarda soliq tekshiruvlarini (kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv, soliq auditi) to‘g‘ri o‘tkazilishini ta‘minlaydi”<sup>11</sup>.

Raqamlashtirish nafaqat soliq nazorati uchun yangi ob’ektlarning paydo bo‘lishini nazarda tutadi, balki soliq ma‘muriyatchiligida soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorlik jarayonlarini soddalashtirish nuqtai nazaridan qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Soliq nazoratini raqamlashtirish asosida takomillashtirish borasi Yevropada ma‘lum ishlar amalga oshirilmoqda. Yevropada alohida mamlakatlarda yagona hisobot standarti joriy qilingan. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan ishlab chiqilgan yagona hisobot standarti SAF-T(Standard Audit File for Tax) Yevropa Ittifoqining turli mamlakatlarida faol amalga oshirilmoqda. Masalan, 2020 yilda ushbu yagona standart Norvegiya tomonidan joriy etilgan.<sup>12</sup> SAF-Tning amalga oshirilishi soliq organlariga ko‘proq ma‘lumot to‘plash imkonini beradi, natijada yig‘imlar ko‘payadi va QQS bo‘shliqlari kamayadi. Yevropa mamlakatlarining yagona hisobot standarti SAF-T(Standard Audit File for Tax)ni qo‘llash tajribasini mamlakatimiz amaliyotida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, kriptovalyutalar bilan operatsiyalarni soliq nazorati sohasida Avstraliya va AQSh amaliyotlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatiga joriy etish kriptovalyutalardan moliyaviy sxemalarida foydalanayotgan soliq to‘lovchilarning hisobini yuritish imkonini beradi<sup>13</sup>. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi va boshqa me‘yoriy hujjatlarga kriptovalyutalarni soliq nazorati bo‘yicha tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarur.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirishning rivojlanishi sharoitida soliq nazoratini va umuman soliq tizimini o‘zgartirish zaruratga aylandi, chunki raqamlashtirish katta ma‘lumotlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Soliq nazoratini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri bu "katta

<sup>11</sup> Isaev Ф.И. Солиқларни таҳлика-таҳлил қилиш методикаси. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” электрон илмий журнал. 2021. - № 3. - 367-377 б.

<sup>12</sup> SAF-T Financial [Электронный ресурс] // The Norwegian Tax Administration 2019 URL: <https://www.skatteetaten.no/> (Дата обращения: 7.09.2022).

<sup>13</sup> Секушин А.Ю. — Цифровизация и налоговый контроль: опыт зарубежных администраций и возможности его имплементации в России // Налоги и налогообложение. – 2021. – № 3. – С. 26 - 38.

ma'lumotlar" (Big Date) deb ataladigan texnologiyalarni joriy etishdir. Ushbu texnologiyalar (Big Date) tufayli soliq organlari uchun bir qator imkoniyatlar ochiladi: ular soliq to'lovchi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi, soliq to'lovchilarning noqonuniy faoliyatini va soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi amaliyotida, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq nazoratini takomillashtirish asosida soliq organlari tomonidan "Nalog-3" AIS, ASK NDS-3, idoralararo va davlatlararo axborot almashinuvi, shuningdek, soliq hisobotlarini elektron shaklga o'tkazish kabi yangi axborot texnologiyalaridan faol foydalanilmoqda.<sup>14</sup>

Shu o'rinda mamlakatimizdagi soliq nazorati bo'yicha tadbirlarni tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 136-moddasida soliq nazoratining soliq tekshiruvlari va soliq monitoringi shaklida amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Soliq kodeksining 137-moddasida soliq tekshiruvlarining quyidagi

- 1) kameral soliq tekshiruvlari;
- 2) sayyor soliq tekshiruvlar;
- 3) soliq auditi kabi turlari keltirib o'tilgan<sup>15</sup>.

Qabul qilingan hujjat bilan ayrim turdagi tekshirishlarni bekor qilishning yangi bosqichiga yo'l ochib berildi. Chunonchi, 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab quyidagilar bekor qilindi:

- tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlar (ya'ni moratoriy ostiga tushmagan va yong'inga qarshi, sanitariya, energetika nazorati, davlat veterinariya xizmati va boshqa organlar tomonidan o'tkazilayotgan rejali tekshiruvlar);

- tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida o'tkaziladigan nazorat tartibidagi tekshiruvlar – nazorat organlari o'tgan tekshirishda qayd etilgan huquqbuzarliklarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bartaraf etganligini tekshirishi.

Shu tariqa, 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab, ilgariidek, quyidagilar o'tkaziladi:

- jinoyat ishlari doirasida o'tkaziladigan moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish) (JPKning 22-1-bobi);
- yuridik shaxs tugatilishi munosabati bilan moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish);
- jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi holatlari bo'yicha bergan murojaatlari asosida o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar;
- kameral nazorat;
- naqd pul tushumi kelib tushishi xronometraji;

<sup>14</sup> Кирова Е.А., Кожебаткина А.В. Модернизация налогового контроля в условиях цифровизации экономики//Вестник университета. 2020. № 9. С. 94–99.

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 2022.

• 2018 yildan joriy etilgan soliq monitoringi hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqatdagi soni muvofiqligi ustidan monitoring.

Yuqoridagilarga asosan quyidagi xulosalar qilindi:

Soliq ma’muriyatchiligi sohasida raqamlashtirishning rivojlanishi soliq nazorati samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi va korxonada to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq tekshiruvlarini o‘tkazishdan chegaralanish, soliq to‘lovchilarga barcha soliqlarni ixtiyoriy ravishda to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar, shuningdek, ularning soliq majburiyatlarini aniqlashtirish, to‘lash uchun imtiyozlar yaratishga o‘tish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirishning rivojlanishi sharoitida soliq nazoratini va umuman soliq tizimini o‘zgartirish zaruratga aylandi, chunki raqamlashtirish katta ma’lumotlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Soliq nazoratini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri bu "katta ma’lumotlar" (Big Date) deb ataladigan texnologiyalarni joriy etishdir.

Soliq nazoratini raqamlashtirish asosida takomillashtirish borasidagi Yevropa, Avstraliya va AQSh kabi mamlakatlar tajribasini mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

#### **Xulosa va takliflar.**

1. QQS bilan bog‘liq firibgarlik sxemalaridan foydalanib, soliq to‘lamaslik tarzidagi asossiz soliq nafi olish yoki soliq summalarini kamaytirishga doir ishlar bo‘yicha soliq organlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish vakolatini belgilash;

2. DSQning Soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash boshqarmasiga yuqorida qayd etilgan ishlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish vazifasini yuklatish;

3. QQS to‘g‘ri hisoblanishi yuzasidan o‘tkazilgan kameral soliq tekshiruvda huquqni suiiste’mol qilish, shu jumladan:

qalbaki yoki ko‘zbo‘yamachilik uchun bitimlar tuzish (operatsiyalar amalga oshirish) orqali soliqni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik;

hisobga olinadigan soliq summasini qonunga xilof ravishda oshirish yoki to‘lanadigan soliq summasini kamaytirish sxemalarining qo‘llanishi natijasida asossiz soliq nafi olinganlik holatlari aniqlanganda soliq to‘lovchiga soliq auditini tayinlash hamda soliq auditi natijasiga ko‘ra, jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki ish qo‘zg‘atishni rad etish masalasini hal qilish maqsadga muvofiq.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

Daniel Ho, Peter Lau (2019) Tax audit in Hong Kong// The International Tax Journal.21.12.2019. Samuel Chan, Gerald Chau, Patrick Leung (2017) Tax audit and investigation in China and Hong Kong// The International Tax Journal, February-January.

Arens A., Lobbek Dj. (1995) Audit. – M.: Finansy i statistika. s.12-14. (Ahrens A., Lobbeck J. (1995) Audit. - M.: Finance and statistics. p.12-14.)

Barsulaya T.D. (2019) Nalogovyy audit. Uchebnik: uchebnoe posobie / Barsulaya T.D. — Moskv : Rusayns. — 582 s. — ISBN 978-5-4365-3384-1. — URL: <https://book.ru/book/932100> (data obrasheniya: 14.12.2019). (Barsulaya T.D. (2019) Tax audit. Textbook: study guide / Barsulaya T.D. - Moscow: Russcience. - 582 p. — ISBN 978- 5-4365-3384-1. — URL: <https://book.ru/book/932100> (reference date: 14.12.2019))

Do'smurotov R.D. (2007) Auditorlik faoliyati: Nazariya, uslubiyot va amaliyot. Monografiya. - T.: «Moliya». – 276 b. (Dusmurotov R.D. (2007) Auditing activities: Theory, methodology and practice. Monograph. - T.: «Moliya». – 276 p.)

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi. O'RQ599, 2019-yil 30-dekabr. (Tax Code (2019) New Tax Code of the Republic of Uzbekistan. ZRU-599, December 30, 2019.)

Mironova O.A., Xanafeev A.F. (2014) Razvitie nalogovogo audita: problemy i perspektivi / O. A. Mironova, A. F. Xanafeev // Auditorskije vedomosti. №5. - S. 27 – 37. (Mironova O.A., Hanafeev A.F. (2014) Development of tax audit: problems and prospects / O. A. Mironova, A. F. Khanafeev // Audit statements. №5. - p. 27 – 37. )

Orlov D.V. (2019) Razvitie metodologii i organizatsii nalogovogo audita v kommercheskix bankax: avtoref. dis.kand.ekon.nauk: 08.00.12 [Elektronnyy resurs] /

Orlov Dmitriy Valerevich. Rejim dostupa: <http://www.psu.ru>.18.12.2019. (Orlov D.V.(2019) Development of a methodology and organization of tax audit in commercial banks: author. Candidate of Economic Sciences: 08.00.12 [Electronic resource] / Orlov Dmitry Valerievich: <http://www.psu.ru>.18.12.2019.)

Usatova L.V. (2008) Organizatsiya protsessa nalogovogo audita rasxodov. Jurnal ekonomicheskij analiz: teoriya i praktika, 24 (129), 26-31str. (Usatova L.V. (2008) Organization of the process of tax audit of expenses. Journal of Economic Analysis: Theory and Practice, 24 (129), 26-31 pp.)